



**“G‘afur G‘ulom ijodida huquqiy me’yorlar:
Adabiyot va qonunchilikning o‘zaro bog‘liqligi”**

Ismoilova Shoiri O‘ktam qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

E-mail: ismoilovashoira331@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri xalq yozuvchisi G‘afur G‘ulomning asarlaridagi umumiy huquq masalalari yoritib o‘tilgan. Shuningdek, “Shum bola”, “Yodgor” qissalarida shuningdek "Mening o‘g‘rigina bolam" hikoyasi talqinida bolalar huquqi bilan bog‘liq muammolar hamda ularning zamonaviy qonunchiligimiz bilan bog‘langan holda talqini keltirib o‘tilgan. Bolalar o‘z huquqlariga qachondan ega bo‘lishi va ularning huquqlari buzilgan taqdirda kim ularning huquqlarini himoya qilishi masalalari qonunchiligimizda keltirib o‘tilgan normalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bola huquqlari, ijtimoiy tenglik, adolat, ta’lim, tarbiya, yashash huquqi, mehnat qilish huquqi, vasiylik, homiylik.

Kirish

Hozirgi kungacha o‘zining ko‘p qirrali asarlari orqali kitobxonlarni jalb qilib kelayotgan o‘zbek adabiyotida o‘zining ulkan adabiy merosiga ega akademik, yozuvchi, shoir hamda dramaturg G‘afur G‘ulom o‘z asarlari orqali huquqiy sohaga ham katta hissa qo‘shgan yozuvchilarimizdan biridir. Uning hayoti va ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak,



adib juda ko‘plab sohalarda o‘zining adabiy merosiga ega. Adib hikoyalar, she‘rlar va qissalar yozish bilan bir qatorda tarjimonlik hamda hajviy asarlarni yaratish orqali o‘zining asarlarining qamrovini kengaytirgan mashhur shaxslardan hisoblanadi.

Uning eng mashhur asarlaridan biri "Sen yetim emassan " she‘rini aynan ko‘plab xalqlar uchun katta talofat keltirgan urush tufayli yetim qolgan bolalarning bundan keyin o‘z hayotlarini davom etishlari uchun go‘yoki taskin sifatida yozgan. Ushbu misralarda u bolalarga qarata shunday yozadi:

Sen yetim emassan,

Tinchlan, jigarim.

Quyoshday mehribon

Vataning-onang,

Zaminday vazminu

Mehnatkash, mushfiq

Istagan narsangni tayorlaguvchi

Xalq bor- otang bor.

Ushbu she‘rda aynan o‘zbek xalqining insoniy qadriyatlarga qanchalik amal qilishi va yurtimizdan madad kutib kelgan bolalar uchun doimo mehnatkash xalqimizning iltifot ko‘rsatishini tasvirlagan. G‘afur G‘ulom har bir asarini yaratar ekan, uning doimiy maqsadi o‘sha davrda xalqimizning qanday qiyinchilikka ko‘milgan hayotini tasvirlashga harakat qilgan. Uning adabiy merosini tahlil qilar ekanmiz, juda ko‘plab qonun buzilish holatlari tahliliga duch kelishimiz mumkin. Misol uchun, barcha uchun mashhur bo‘lgan qissalarida "Shum bola " va "Yodgor" asarlarida, xususan, bola huquqlarining buzilishi, gender tenglik, shuningdek, oila huquqi bilan bog‘liq o‘sha davrda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar aynan



hajviy yo‘l bilan yaqqol ko‘rsatib o‘tilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.”Shum bola”qissasida keltirib o‘tilgan voqealarga nazar solaylik, ushbu qissada Qoravoyning sarguzashtlari orqali xalq hayoti hajviy lekin juda ta’sirli tarzda adib tomonidan yozilgan.Qoravoy har bir borgan joyida turlicha odamlarga duch keladi, ba’zilar unga yaxshi muomala qilishsa, ba’zilar esa uni kamsitadi uni “yetimcha” deb atash ular uchun oddiy hol hisoblangan bu esa o’sha davr odamlarining bolalarga nisbatan shafqatsizlarcha munosabat ko‘rsatilganligini va ularning huquqlarining buzilganligi yaqqol ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari, Shum bolani hattoki og‘irlik qilishga ham undagan holatlar insonlarning o‘zlarining g‘araz niyatlarini amalga oshirishda bolalardan foydalanishdan ham tab tortmaganliklarini ko‘rsatib beradi.”Yodgor” qissasida keltirilgan holatlarga ko‘ra esa Jo‘radan yordam so‘rgan ayol o‘zining majburan turmushga berilganligini bundan tashqari, u ba’zida eri tomonidan kaltaklanishini aytib o‘tgan bu holat esa aynan ayollar huquqlarining buzilish holatiga asos bo‘ladi ya’ni Oila kodeksiga binoan nigoh tuzishda ikkala tomon ham roziligi talab etiladi. Bundan tashqari ayollarni oilaviy zo‘ravonlik va tazyiqdan himoya qilish maqsadida yangi qonun hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekistonda ham 2019-yil 2-sentyabr kuni “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan bo‘lib, unda “jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari,erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilinishini ta’minlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash ” xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan etib belgilangan. Shuningdek, o’sha mashhur Roqiya bibi va uning to‘rt yetim nabirasi yashaydigan kulbaga o‘g‘rilik sodir qilish uchun kelgan odam va uning bibi bilan suhbatini tasvirlangan hikoya "Mening o‘g‘rigina bolam" hikoyasi orqali adib o’sha davrda insonlarning qanchalik nochor holda yashaganligi va hatto oilasining kunlik ehtiyojlari uchun jinoyat sodir qilishdan ham



qaytmaydigan darajaga yetgan holatini yaqqol tasvirlagan. Ushbu hikoyada yetim bolalarning taqdiri ularning sakson yoshlardan oshgan buvisining eng asosiy tashvishi edi. Chunki ular juda yosh hamda birorta mehnat bilan shug'ullana olishmaganligi sababli ro'zg'or buyumlarini sotib kun ko'rayotganliklari to'g'risida bibi aytib o'tgan. Demak, ushbu hikoyadagi holatni hozirgi qonunchiligimiz bilan tahlil qiladigan bo'lsak, yangi mehnat qonunchiligimiz bo'yicha bolalar mehnatining aniq yosh ko'rsatkichi keltirib o'tilgan. Shuningdek, hikoyada tasvirlangan bolalarning og'ir sharoitda yashashi va mehnat qilishga majbur bo'lishi bugungi kunda bolalar huquqlarini himoya qilish masalalarini yodga soladi. Bundan tashqari, majburiy mehnat nafaqat bolalar va barcha xodimlar uchun taqiqlangan ushbu prinsip mehnat qonunchiligida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, har bir bola yashash, rivojlanish, ta'lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish va zo'ravonlikdan himoyalaniş huquqiga ega. Keyingi ushbu hikoyadagi huquqiy vaziyat bo'yicha ya'ni agar oilada ota-ona vafot etgan taqdirda ularning voyaga yetmagan farzandlariga kim g'amxo'rlik qilishishi lozim hamda ularning manfaatlari kim tomonidan himoya qilinishi masalasiga to'xtalib o'tamiz. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida ushbu masala maxsus moddalar asosida yoritib o'tilgan. Xususan, agarda yuqoridagi vaziyat bo'yicha va boshqa bir qancha holatlar yuzasidan bolalar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan taqdirda ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi. Demak, vasiy va homiy tushunchalarining umumiy ma'nolarini tahlil qiladigan bo'lsak. Ushbu organlarning har ikkalasi ham aynan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun tashkil qilingan organ hisoblanadi, ularning asosiy farqli jihati aynan vasiylik – bu o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun, homiylik shakli esa – aynan o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlarini himoya qilish uchun maxsus qarorlar bilan belgilanadi. Ushbu organlar aynan bolalar uchun mas'ul shaxslarni belgilaydi



va doimiy tarzda ularning ta'minotini, ta'lim va tarbiya olish sharoitlarini nazorat qiladi. Bilamizki, jamiyatda katta muvaffaqiyatga va barqaror rivojlanishga erishish uchun avvalo xalq bilimli va salohiyatli bo'lishi talab etiladi. Xalq qachon bilimli bo'ladi? Qachonki bilim aynan yoshlikdan o'rgatilsa. Demak, umumiy ma'noda bola huquqlarining jamiyat uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini adibning har bir asarini tahlil qilgan holda anglashimiz mumkin. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday fikr bildirib o'tganlar; -"Agar mendan sizni nima qiynaydi?" deb so'rasangiz, farzandlarimizning ta'lim va tarbiyasi deb javob beraman". Yuqoridagi prezidentimizning fikrlaridan ham anglashimiz mumkinki, bolalarning ta'lim olishi va tarbiyasi bu davlatning eng muhim masalasi hisoblanadi. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi orqali adib bolalar huquqlarining buzilishi, ijtimoiy adolatsizlik va qashshoqlik kabi muammolarga e'tibor qaratadi. Ushbu asar bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, bolalar huquqlarini himoya qilishning ahamiyatini yana bir bor eslatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi; (148-149- moddalar)
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Vasiylik va homiylik to'g'risida"
4. Saydulla Mirzayev. XX asr o'zbek adabiyoti. «Yangi asr avlodi» Toshkent, 2005
5. G'afur G'ulom. Mening o'g'rigina bolam. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr. 1993.
6. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2021.
7. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun.



8. <https://bolahuquqlari.uz/static/uploads/Kitoblar/Bolalar%20huquqlariga%20oid%20milliy%20qonunchilik%20asoslari..>
9. <https://gov.uz/oz/advice/NaN/document/2173>